

**YENGIL SANOAT KORXONALARINING MAMLAKATIMIZ
IQTISODIYOTIDAGI O'RNI****Saidmuradova T.S.**

Katta o'qituvchi.

Shokirova D.J.

Talaba.

Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18280004>

Annotatsiya. Mazkur maqolada yengil sanoat korxonalarining rivojlanish bosqichlari, ularning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi o'rni hamda statistik ko'rsatkichlar asosida tahlili yoritilgan. Tadqiqot davomida yengil sanoat korxonalarida barqaror o'sishi, oldiga qo'ygan maqsadi hamda Yengil sanoatning bandlikni ta'minlash, ishlab chiqarish hajmini oshirish va eksport salohiyatini kuchaytirishdagi ahamiyati va yengil sanoat oldidagi muammolar asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: yengil sanoat, to'qimachilik sanoati, ishlab chiqarish, bandlik, statistika, iqtisodiy rivojlanish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются этапы развития предприятий легкой промышленности, их роль в экономике нашей страны, а также проводится анализ на основе статистических показателей. В ходе исследования обосновываются устойчивый рост предприятий легкой промышленности, ставимые ими цели, важность легкой промышленности в обеспечении занятости, увеличении объемов производства и укреплении экспортного потенциала, а также проблемы, стоящие перед легкой промышленностью.

Ключевые слова: легкая промышленность, текстильная промышленность, производство, занятость, статистика, экономическое развитие.

Abstract. This article covers the stages of development of light industry enterprises, their role in the economy of our country, and an analysis based on statistical indicators. During the study, the sustainable growth of light industry enterprises, the goals they set for themselves, the importance of light industry in ensuring employment, increasing production volumes and strengthening export potential, and the problems facing light industry are substantiated.

Keywords: light industry, textile industry, production, employment, statistics, economic development.

Kirish

Yengil sanoat korxonalari mamlakat iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha aholining kundalik ehtiyojlari uchun zarur bo'lgan kiyim-kechak, to'qimachilik mahsulotlari, poyabzal va boshqa iste'mol tovarlarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan.

Iqtisodiy adabiyotlarda ta'kidlanishicha, yengil sanoat nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib, aholi bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida yengil sanoat korxonalarining barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hamda ichki va tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallash bilan bevosita bog'liqdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Sanoatni rivojlantirishning dolzarbligi va iqtisodiyotni takomillashtirishda tutgan o'rnining nihoyat darajada kengligi bilan doimiy ravishda tadqiqotchi olimlarning diqqat markazida bo'lgan.

Xususan, mavzu yuzasidan xorijlik olimlardan Y.Rodionov, R.S.Porter, D. Deveryuks, B.Roberts, R.N. Nureyevlar ilmiy yangiliklar yaratgan bo'lsalar, mahalliy olimlardan YO.A.Abdullayev, A.Abdusamidov, U.Muxitdinov, A.A.Ortikov, X.Ishbutayeva, SH.Nizomova, E.X.Maxmudov, M.Isoqovlar bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borishga muvaffaq bo'lishgan. Xususan, A.Artikov "O'zbekistonda sanoatni rivojlantirishning qator imkoniyatlari, geografik va iqtisodiy omillari"ga [2], M.P.Narziqulov "Sanoatni rivojlanish strategiyasini ishlab chiqish jarayonida asosiy e'tibor tarkibiy o'zgarishlarga qaratilganligi"ga [3], E.X. Maxmudov "Sanoat tarmoqlari rivojlanishiga sharoit yaratishning strategik yo'nalishlari birinchi navbatda byudjet, soliq, pul kredit, narx va valyuta siyosati kabi vositalarni qamrab olgan qulay makroiqtisodiy muhitni yaratish"ga [4], bog'liqliklariga alohida to'xtalib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, statistik tahlil, ekspert baholash, ilmiy abstraksiyalash va boshqa usullardan keng foydalanildi

Tahlil va natijalar

Yengil sanoat tarmog'ining rivojlanishi ko'p yillik tarixga ega. Ilmiy manbalarga tayanib, yengil sanoat rivojlanishini bir necha bosqichga ajratish mumkin:

Birinchi bosqich — xomashyoni dastlabki qayta ishlash. Bu davrda asosan paxta tozalash va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish ustun bo'lgan.

Ikkinchi bosqich — ip-kalava va mato ishlab chiqarishning kengayishi. Bu bosqichda ishlab chiqarish hajmi va mehnat unumdorligi oshgan.

Uchinchi bosqich — tayyor mahsulot ishlab chiqarishga o'tish. Tikuv-trikotaj va poyabzal korxonalarining rivojlanishi ichki bozorni to'ldirishga xizmat qilgan.

To'rtinchi bosqich — innovatsion va eksportga yo'naltirilgan rivojlanish. Zamonaviy texnologiyalar, avtomatlashtirilgan uskunalar va dizayn asosida raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda [6].

Yengil sanoat tarmog'i mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o'rin egallaydi. Yengil sanoat tarkibiga to'qimachilik, tikuv-trikotaj, charm-poyabzal, ipakchilik va gilamchilik tarmoqlari kiradi.

Bu sohalarida 8000 dan ortiq korxonalar faoliyat yuritib, shulardan uyushma tarkibida 2000 taga yaqin korxona mavjud. Shuningdek 130 dan ortiq qo'shma korxonalar va 134 ta klasterlar samarali faoliyat yuritmoqda.

Ushbu tarmoqlar yuqori mehnat sig'imiga ega bo'lib, ko'plab ish o'rinlarini yaratadi. Statistik kuzatuvlarga ko'ra, yengil sanoat korxonalarida 430 ming fuqaro ish bilan ta'minlangan bo'lib, band bo'lgan ishchilarning salmoqli qismini ayollar va yoshlar tashkil etadi [1].

Yengil sanoatning muhim jihatlardan biri — mahalliy xomashyoni chuqur qayta ishlash imkoniyatining mavjudligidir. Paxta, jun, ipak va charm kabi xomashyoni tayyor mahsulotga aylantirish orqali yuqori qo'shimcha qiymat yaratiladi. Bu esa sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmini oshirishga xizmat qiladi.

Statistik tahlil yengil sanoat korxonalarida so'nggi yillarda barqaror o'sish kuzatilayotganini ko'rsatadi. Masalan, shartli statistik ma'lumotlarga asoslanib aytish mumkinki, agar bazis yilida ishlab chiqarish hajmi 100 birlikni tashkil etgan bo'lsa, keyingi yillarda bu ko'rsatkich 130–140 birlikka yetgan [5].

Bugungi murakkab sharoitda tashqi bozordagi vaziyat tez o'zgarayapti. Buning ta'sirida eksport narxlarini ip kalavada 9 foizga, gazlamada 15 foizga, tayyor mahsulotda 13 foizga tushgan.

Asosiy eksport bozorlarimizda tayyor mahsulot olish kamaygan, ya'ni xom ashyoni o'zimizda chuqur qayta ishlashga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bu yilgi engil sanoatning yillik natijalari hisobotiga ko'ra yengil sanoat tarmog'iga 2 milliard dollardan ortiq xorijiy investitsiya jalb qilib, 82 ta yirik loyihani amalga oshirish hamda 25 mingga ish o'rni yaratish ko'zda tutilgan. To'qimachilik mahsulotlari eksportini 4 milliard dollarga, charm mahsulotlari eksportini 250 million dollarga olib chiqish maqsad qilingan [1].

Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlariga ko'ra, 2025 yil yanvar-sentabr oylarida 1,9 mlrd AQSH dollarilik to'qimachilik mahsulotlari eksport qilingan. Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari - 5%, ip-kalava - 29%, trikotaj mato - 11%, gazlamalar - 6%, paypoq mahsulotlari - 2%, gilamlar - 1% ni tashkil qilgan [7].

Bugungi kunda Mamlakatimizda yengil sanoat korxonalari rivojlanib borishiga qaramasdan ularni rivojlanishiga to'siq bo'luvchi bir qancha muammolar ham mavjud. Yengil sanoat korxonalarining rivojlanishida ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan:

- texnologik uskunalarning eskirishi;
- malakali kadrlar yetishmasligi;
- tashqi bozorlarda raqobatning kuchayishi.
- To'lov intizomi va o'zaro hisob-kitoblarni yetarli darajada emasligi;
- Korxonalarda marketing xizmatining yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi sababli ishlab chiqarilgan mahsulotlarni omborlarda to'planib qolishi.

Mazkur muammolarni hal etish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish hamda statistik prognozlash asosida rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, yengil sanoat korxonalarining rivojlanishi mamlakat iqtisodiy taraqqiyotining muhim omillaridan biridir. Statistik tahlil natijalari ushbu sohada ishlab chiqarish hajmi, bandlik va eksport salohiyati oshib borayotganini ko'rsatadi. Ilmiy asoslangan yondashuv va samarali davlat qo'llab-quvvatlashi orqali yengil sanoatni yanada rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zo'qimachilik sanoat" uyushmasi xisoboti. 12. 12. 2025 y.
2. A.Ortikov. Sanoat iqtisodi. Darslik. T.: TDIU, 2009. 236 b.
3. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вакилпапрез\$, 2012. С. 8.
4. E.X. Maxmudov, A. Ortikov, F. Karimov. Korxona iqtisodiyotning asosiy bo'g'ini. / Hamkor. 2010 yil 7 fevral
5. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. Sanoat va yengil sanoat bo'yicha statistik to'plamlar. – Toshkent, so'nggi yillar.
6. G'ulomov S.S. Sanoat iqtisodiyoti. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2018.
7. Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.